

The Role Of Case Study Technology In Professional Guidance Of Graduate Students

Mavlonov Dilmurod Murtazoyevich

Psychologist of school No. 23, Romitan district, Bukhara region

Abstract

This article develops the features of the use of case study methods in pedagogical activities. The main purpose of case study technology is to develop their scientific and creative abilities by solving educational didactic tasks and existing problem situations. The article discusses one of the educational methods, the "Case Study" method, to connect knowledge in the field of biology with everyday life, develop students' thinking skills, and increase teaching efficiency, provides examples of it, and discusses the types of cases related to the science of human anatomy.

Keywords: Pedagogical technology, education, model, technology, research, knowledge, skills, qualifications, competence, case study, scientific and creative, problem, DTS and model curriculum, electronic learning resources.

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogika faoliyat davomida keys-stadi metodlarini qo'llash xususiyatlari ishlab chiqilgan. Keys-stadi texnologiyasining asosiy maqsadi o'quv didaktik vazifalari, mavjud muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali ularning ilmiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Biologiya sohasidagi bilimlarni kundalik turmush tarzi bilan bog'lashni, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirish, o'qitish samaradorligini oshirish uchun ta'lim metodlaridan biri "Keys stadi" metodi haqida so'z yuritilgan, unga doir misollar keltirilgan va odam anatomiyasi faniga oid keys turlari haqida so'z yuritilgan

Kalit so'zi: *Pedagogik-texnologiya, ta'lim-tarbiya, model, texnologiya, izlanuvchanlik, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, keys-stadi, ilmiy-ijodiy, muammo, DTS va namunaviy o'quv dastur, elektron ta'lim resurslari.*

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizda biologiya fanini o'qitish sohadagi zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy qilish, o'quv faoliyatida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini ta'minlash, ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Biologiyani o'qitish davomida ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, biologiya fani bu hayot haqidagi fan ekanligi, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qiladi. Shu o'rinda biologiya ta'limi jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qo'llanishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir.

Yangi pedagogik texnologiya ta'limning, xususan, Biologiya sohasi ham ta'limining ma'lum maqsadga yo'naltirilgan shakli, usuli va vositalarining mahsulidir. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda o'qituvchi dars jarayonida faqat o'zi ishlaydi, oquvchilar esa kuzatuvchi bo'lib qolaveradilar. Ta'limning bunday ko'rinishi o'quvchilarning aqliy tafakkurini o'stirmaydi, faolligini oshirmaydi, ta'lim jarayonidagi ijodiy faoliyatini so'ndiradi. Shuningdek, ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni bilimlarining yaxlit o'zlashtirilishiga yordam beradi, o'quvchi tafakkurini o'stiradi, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Zero, barkamol avlod tarbiyasi jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Aynan amaliy vaziyatlarni hal qilishda qo'llaniluvchi keys-stadi texnologiyasi kelgusi faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi vaziyatlarning yechimini oldindan topishga o'rgatuvchi, yangi yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltiruvchi pedagogik texnologiyalardan biridir.

Amaliy vaziyatlarni hal etish uslublari va vositalari, ya'ni keys-stadi (ingilizcha "case"-yig'ma, aniq amaliy, holat, stadi-o'quv) texnologiyasi bo'lib, u tashkilot, shaxslar guruhi yoki alohida shaxslar hayotidan olingan real vaziyat deganidir. Gary Thomasquyidagi keys-stadiga oid tarifni keltirib o'tadi: Keys

stadilar bu shaxslarni, voqealarni, qarorlarni, davrlarni, loyihalarni, qonunlarni, tashkilotlarni va boshqa tizimlarni bir yoki undan ortiq usullar orqali avvaldan o'rganib kelinayotgan tahlili hisoblanadi. Keysning subyekti tahliliy vaziyatlardir, ob'ekti esa uni tahlil qilish jarayonidir.

Keys-stadi bo'yicha yana bir ta'rif bu uni tadqiqot strategiyasi deb belgilanishidan iborat. Keys-stadi bu bir yoki bir nechta keyslarni, ko'p miqdordagi dalillarni o'z ichiga olishi mumkin, turli-xil dalil manbalariga bog'liq va nazariy vaziyatlarning oldingi rivojlanishidan manfaat olishini anglatadi. Keys- stadilar statistik izlanishlar va ko'p ma'lumot to'plagan holda tadqiqot qilish bilan farqlay olish lozim. Bir mavzudagi tadqiqot keys- stadi ma'lumotlaridan foydalanib, xulosalar qabul qilish uchun asos keltirib beriladi. Bu yana Lamnek fikrlarida o'z tasdiqini topadi va shakllanadi. Keys-stadi – bu tadqiqotli yondashish, aniq ma'lumotlar olish texnikalari va metodologik paradigmalar orasida joylashgan.

Bugungi kunda ommalashib borayotgan "Keys-stadi" metodining keys topshiriqlarini tuzishning biologiya fanidagi turlariga to'xtalamiz. Ular quyidagilarga bo'linadi:

- 1) Amaliy keyslar;
- 2) O'rgatuvchi keyslar;
- 3) Ilmiy tadqiqot keyslari.

Biologiya sohasida qo'llaniladigan keyslarning tuzilish tarkibi:

Keys turlari	Biologik keyslarning tuzilishi	
	Keysning mazmuni	Keys topshiriqlarining qisqacha bayoni
Amaliy	Biologik bilimlarni tadbiq qiladigan hayotiy vaziyatlar	Keys modelining to'liq mazmuni va modeli shakllantiriladi. Bu holatda optimal variantni topish uchun alternativ holatlarni qo'shish mumkin
Ta'limiy (o'rgatuvchi)	Biologiya fani sohasidagi o'quv jarayon vaziyatlari	Keys topshirig'i mazmuni bayon qilinadi. Bunda muammo ichidagi yani qism muammolar keltiriladi. Bunday masalalarni yechish matematika fanining biror bo'limi doirasida keys topshiriqlari tuzib bajariladi.
Ilmiy tadqiqot	Biologik modellar tuzish va ularni tadqiq qilish, interpretatsiya qilish, ishlatish mumkin bo'lgan ilmiy	Keys topshiriqlari ayrim ma'lumotlarning to'la bo'lmagan, ma'lumotlari asosida beriladi. Matematik modellar bir qancha holatlar uchun matematik belgilar va tushunchalar orqali tuzilib, bular yordamida
	izlanish jarayonlari	matematikaning bir qancha bo'limlaridagi masalalarni keys - stadi metodi bilan yechish mumkin bo'ladi.

XULOSA

Tezisdagi keltirilgan texnologiya yordamida darslarni samarali tashkil qilish mumkin. O'quv mashg'uloti davomida o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish maqsadida turli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan

foydalanish o'quvchilarning nafaqat fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi balki ularning chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov Biologiya ta'limi texnologiyalari. Metodik qo'llanma

«O'qituvchi», Toshkent. 2002y

M. N. Ibodova. Академик лицей ва касб –хунар коллежларида умумий биологияни ўқитишда инновацион технологиялардан фойдаланиш Гармонично развитое поколение-условие стабильного развития, благополучия и процветания общества . Тошкент -2013 й.

M. N. Ibodova. Биология дарслари ни ташкил этиш технологияси. Услубий қўлланма. (Академик лицей 3920001 табиий фанлар тайёрлов йўналиши ўқувчилари учун мўлжалланган). 11. 08. 2022 й

J.O.Tolipova “Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar” Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - “Cho'lpon” – 2011 y.

Namozovna, I. M. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THE SUBJECT “ZOOLOGY” IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Open Access Repository, 4(3), 21-25.